BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ANDROGOGIK KOMPITENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi
GulDPI Pedagogika va psixologiya
kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
muxamadiyevagulnoza4@gmail.com

Annotatsiya. Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, masofadan o‘qitish, mustaqil ta’lim olishni kengaytirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash hamda moddiy-texnika bazasini takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Natijada kadrlar tayyorlash va malaka oshirish sifat darajasini oshirish, jahon amaliyoti asosida pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Kalit so‘zlar: kattalar ta’limi, androgogika, kompitensiya, ta’lim , tarbiya,nazariya.

Abstract: In recent years, in our republic, the development of the higher education system based on foreign experiences, the development of new educational programs, the expansion of distance learning, independent education, the use of modern pedagogical and information and

communication technologies, and the material and technical base normative basis of improvement was created. As a result, the possibilities of improving the quality of personnel training and professional development, and improving the pedagogical personnel professional development system based on world practice will be expanded.
Key words: Adult education, androgogy, competence, education, education, theory.

Kattalar ta’limi deganda rasmiy va norasmiy ta’lim jarayonlarining butun majmui tushuniladi. Uning yordamida jamiyat hayotining ijtimoiy, ishlab chiqarish, oilaviy-maishiy qatlamlaridagi o‘quv faoliyatini amaliy ishtirok bilan birga yoki galma-gal olib boruvchi kishilar:

- o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar,
- bilimlari, ko‘nikmalarini, shaxsiy fazilatlari va ma’naviy qadriyatlarini boyitadilar,
- yangi kasbni egallaydilar yoki malakalarini oshiradilar, yoki ularni jamiyat va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi yo‘nalishlarda qo‘llaydilar.

So‘nggi yarim asrda kattalar ta’limi umuman ta’lim sohasining rivojlanishida yetakchi rol o‘ynayapti. Uni miqdor va sifat jihatdan rivojlantirish esa butun dunyoda zamonaviy ta’limning asosiy vazifasiga aylandi.

Miqdoriy munosabatda jahonning rivojlangan mamlakatlarida kattalar ta’limi katta yoshdagi aholining 20-80 % ni qamrab oladi. So‘nggi yillarda kattalar ta’limi jamiyatning marginal ijtimoiy guruhi vakillari (ijtimoiy zaif qatlamlar: nafaqaxo‘rlar, ishsizlar, ayollar, nogironlar va b.)ning o‘qishi uchun keng imkoniyatlar yaratayotgani sababli katta yoshda ta’lim oluvchilar soni ortib bormoqda.

Sifat darajasida kattalar ta’limi sohasida ta’limning asosiy konsepsiyalari va turlari shakllanyapti, rivojlanyapti va amalga oshyapti. Bular uzluksiz, erkin (yoki „ochiq”), masofaviy (distansion), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va b. Kattalar ta’limida ta’limni tashkil etishning turli shakl va metodlari keng qo‘llanyapti. Masalan, davom ettirilgan ta’lim, qayta tiklangan ta’lim, o‘qitishning aralash kurslari, dam olish kunlari o‘qish kurslari va sh.k.

Katta yoshdagi kishilarning turli ehtiyojlarini qondiruvchi fuqarolik, ekologik ta’lim kabi yangi mazmunli dasturlar yaratilyapti va muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.

“Andragogika” tushunchasi 1833yilda ilmiy adabiyotlarda ko‘zga tashlana boshladi. Birinchi bo‘lib nemis pedagog tarixchisi A.Kapp tomonidan qo‘llanilgan.

“Andagogika” grek tilida “andros” - erkak yoki kishi, “agogeyn” - yetaklash ma’nosini bildirgan. Agar so‘zma so‘z tarjima qilinsa, andragogika – “kattalarni yetaklash” ma’nosini bildiradi.

Andragog – bu kattalarni o‘qitish bilan shug‘ullanadigan inson. Katta yoshdagi kishining uzoq hayotiy yo‘lida uning bolaligi va yoshligida egallagan bilim, malaka, ko‘nikma va sifatlari yetarli emas, shuning uchun unga butun umr davomida o‘qish zarur. Lekin inson o‘z hayoti davrida o‘zgaradi, demak u turli yosh davrida turlicha o‘qiydi. Insonning asrlar davomidagi ijtimoiy, ishlab chiqarish, maishiy sohalaridagi turmush tarzi undan butun umr davomida o‘zini o‘qitishga xarakat qilishni talab etmagan. Shuning uchun kattalar ta’limi uzoq vaqt davomida keng rivojlanmagan, demak kattalarni o‘qitish to‘g‘risidagi fanning rivojlanishi uchun jamiyatda kuchli ehtiyoj ham mavjud bo‘lmagan.

Ikkinchi ming yillikning oxirida kattalar ta’limi butun insoniyat rivojlanishining mezoniga aylandi. jamiyat hayotiga jalb qilingan xar bir insonning eng birinchi muammosi uning kompetentlik darajasining jamiyat rivojlanishining sur’atlaridan orqada qolishi bo‘lib qoldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak pedagog kadrlarni malakasini oshirish masalalari Sh.Q.Mardonov, M.T.Mirsoliyeva, T.L.Hurvaliyevalar Sh.Saidqulov, M.A.Yuldashev; bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensi-yalarni samarali rivojlantirish, L.A.Ibragimova, B.B.Ma’murov, A.A.Xalikov, D.O.Ximmataliyev, Sh.S.Sharipov, O.A Qo‘ysinov; O.Q. Haydarovalar; kattalar ta’limining xususiyatlari, kattalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish masalalari bo‘yicha M.T.Mirsoliyeva, B.R.Samatova, D.X. Yulchiyevalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar, ilmiy manbalar, o‘quv-me’yoriy hujjatlar, o‘quv reja va dasturlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, kuzatuv, suhbat, test, o‘z-o‘zini baholash so‘rovi, pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarda androgogik kompitentlikni shakllantirish ilmiy-nazariy yonda-shuvlar bilan boyitilgani; Bo‘lajak o‘qituvchilarda androgogik kompitentlikni shakllantirish hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta’minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda androgogik kompitentlikni shakllantirish metodi-kasini umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari, oliy ta’lim tizimi kadrlarn tayyorlashda, o‘qituvchi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. O‘zbekiston Resupblikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.:, 2020. – 23 sentyabr. – B. 9-10.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori //www. lex.uz

3. 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari //www. lex.uz

5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Samarqand. –2009. – 220 b.

6. Xakimova M.F., Nurumbekova Ya.A., Xidirova M.Q. Umumiy pedagogika va psixologiya. –Toshkent, 2023. – 483 b.

7. Биленко П.Н., Блинов В.И., Дулинов М.В., Есенина Е.Ю., Кондаков А.М., Сергеев И.С. Дидактическая консепция цифрового профессионального образования и обучения. М.: Перо, 2020. – 98 с.

8. Василкова Т.А. Основы андрагогики: учебное пособие / Т.А.Василкова. - М.: КНОРУС, 2011– 256 с.

9. Вербиский А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: Метод. пособие. - М.: Высш. шк., 1991. – 207 с.